

## **Vazir birinchi o‘rinbosarining asosiy vazifalari:**

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining faoliyatini muvofiqlashtirishda ishtirok etish;

vazirlik Markaziy apparati, hududiy favqulodda vaziyatlar boshqarmalari va tarkibiy tuzilmalarning tezkor va safarbarlik tayyorgarligini tashkillashtirish;

Qurolli kuchlar Birlashgan shtabi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Davlat Bojxona qo‘mitalari bilan vazirlikning hamkorlikdagi harakatlarini muvofiqlashtirish;

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi va Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy tadbirlar rejalarini ishlab chiqilishini muvofiqlashtirish va rahbarlik qilish;

vazirlik hay‘ati yig‘ilishlarini o‘tkazilishini tashkillashtirish, hay‘at yig‘ilishlari xujjatlarini ishlab chiqish va umumlashtirish, yig‘ilish qarorlarida belgilangan talablarning bajarilishini nazorat va tahlil qilish;

Qurolli kuchlar Birlashgan shtabi bilan hamkorlikda vazirlikning safarbarlik tadbirlarini tashkillashtirish;

qutqaruv tuzilmalarini doimiy shayligini ta‘minlash, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda, sodir etilgan terroristik xurujlar oqibatlarini bartaraf etish chog‘ida qutqaruv tuzilmalarini boshqarish va tezkor harakatlarini muvofiqlashtirish;

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining hududiy va funksional quyi tizimi kuch va vositalari hamda vazirlikning tezkor bo‘ysinuvidagi kuch va vositalari bilan hamkorlik qilish va faoliyatini muvofiqlashtirish;

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining hududiy va funksional quyi tizimlari boshqaruv organlari bilan o‘zaro axborot almashinuvini ta‘minlash;

soha yo‘nalishida axborot – tahlil, statistik va monitoring ishlarini tashkillashtirish;

tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish, favqulodda vaziyatlar hamda terroristik xurujlar sodir bo'lganda ularning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilgan holda bashoratlash ishlarini amalga oshirish;

vazirlik Markaziy apparatida tezkor navbatchilikni tashkillashtirish;

vazirlik tizimini kundalik faoliyatida va alohida davrda hamda qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish davrida barqaror aloqa bilan ta'minlash;

Mudofaa va Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo'mitasi, O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi hamda transchegaraviy favqulodda vaziyatlar hududlari mavjud bo'lgan qo'shni davlatlarning aloqa xizmatlari bilan hamkorlikda aloqa tizimining shayligini ta'minlash;

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining barcha darajalari va bo'g'inlarida aholini xabardor qilish tadbirlarini tashkillashtirish ishlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

aholini xabardor qilish viloyatlar ichki tizimi va mahalliy xabar berish tizimlarining qurilishi va qayta qurilish tadbirlarini texnik tomondan nazorat qilish.

### **Vazir birinchi o'rinbosarining asosiy funksiyalari:**

favqulodda vaziyatlarni oldini olish, sodir bo'lganda harakat qilish sohasida davlat siyosatini hayotga tadbiq etish;

tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish, profilaktika qilish va sodir bo'lganda bartaraf etish masalalarida FVDT funksional va hududiy quyi tizimlarining navbatchilik qismlari bilan hamkorlikdagi ishlarni tashkillashtirish va muvofiqlashtirish;

respublika hududida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ular sodir bo'lganda bartaraf qilish tadbirlarini rejalashtirish, vazirlik tizimi bo'ysinuvidagi boshqaruv organlariga tezkor vazifalarni o'z vaqtida etkazish;

vazirlik Markaziy apparati, hududiy favqulodda vaziyatlar boshqarmalari va tarkibiy tuzilmalarning jangovar shayligi bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish, tashkillashtirish va amalga oshirish, mazkur masalalar yo'nalishida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri – Fuqaro muhofazasi boshlig'ining qarorlari va Favqulodda vaziyatlar vazirining buyruqlari va direktivalari loyihalarini tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasi hududida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish harakatlari rejasiga muntazam ravishda aniqliklar kiritib borish;

mobil boshqaruv punktlarining yoyilishini takillashtirilishida va ulardagi tezkor guruhlarning faoliyatiga rahbarlikni amalga oshirish va ishini nazorat qilish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ular sodir bo'lganda qutqaruv xizmatlari va tuzilmalariga rahbarlik qilish;

fuqaro muhofazasi, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ular sodir bo'lganda bartaraf etish masalalariga oid me'yoriy-huquqiy xujjatlar loyihalarini ishlab chiqilishini tashkillashtirish va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

hududiy favqulodda vaziyatlar boshqarmalari va tarkibiy tuzilmalarning texnika, jixoz, uskuna va maxsus kiyim-kechak bilan ta'minlash ishlarini nazorat qilish;

Favqulodda vaziyatlar vazirligining tashkiliy-shtat tizimini takomillashtirilishini tashkillashtirish va ushbu masala yuzasidan vazirlik rahbariyatiga takliflar kiritish;

Qo'mondon-shtab, maxsus-taktik va safarbarlik o'quv mashg'ulotlarini tashkillashtirish va o'tkazish;

vazirlik Markaziy apparatini yuqori jangovar tayyorgarlik darajalariga keltirish rejalarini ishlab chiqilishini tashkillashtirish va muntazam ravishda aniqliklar kiritib borish;

Favqulodda vaziyatlar vazirligi harbiy xizmatchilari bilan o'quv yig'inlarini hamda malaka oshirish tadbirlarini rejalashtirish;

sodir bo'lgan tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish va muntazam ravishda tahlil qilib borilishini tashkillashtirish;

belgilangan muddatlarda jangovar boshqaruv signallarni (ko'rsatmalarni) qabul qilish va etkazilishini hamda axborot mashinuvini sifatli va kechiktirmasdan amalga oshirilishini ta'minlash.